

*Qishloq xo‘jaligi vazirligining  
2023-yil “22”-iyundagi  
122-sonli buyrug‘iga  
2-ilova*

## **Agrobiznes subyektlari salohiyatlarini oshirish tarmoq markazi (Capacity Building Center)**

### **NIZOMI**

#### **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. Mazkur Nizom Agrobiznes subyektlari salohiyatlarini oshirish tarmoq markazi - Capacity Building Centering (keyingi o‘rinlarda – Markaz deb yuritiladi) maqsadlari, vazifalari, tashkil etish tartibi va faoliyatini tashkil etishini belgilaydi.

2. Markaz o‘z faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ushbu Nizomga amal qiladi.

Markaz o‘z faoliyatida Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut) bilan hamkorlik qiladi va Institut Boshqaruvin kengashi oldida hisobot beradi.

3. Markazning rasmiy nomi:

davlat tilida – Agrobiznes subyektlari salohiyatlarini oshirish tarmoq markazi - Capacity Building Center

ingliz tilida - Capacity Building Center;

rus tilida - Сетевой центр по наращиванию потенциала субъектов Агропромышленный комплекса (Capacity Building Center).

4. Markazning qisqartirilgan rasmiy nomi:

davlat tilida – “CBC” tarmoq markazi;

ingliz tilida – “CBC” center;

rus tilida - Центр “CBC”.

5. Markazning joylashgan joyi - Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahri, Al-Farg‘oniy ko‘chasi, 204-uy.

#### **II. MARKAZ MAQSADI, ASOSIY VAZIFALARI VA FAOLIYAT YO‘NALISHLARI**

6. Quyidagilar Markazning asosiy maqsadi va vazifalari etib belgilangan:

meva-sabzavotlarni qayta ishslash sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

don va non mahsulotlari sifatini, oziq-ovqat xavfsizligi va sifatini tahlil qilish va ushbu yo‘nalishda mutaxassislarni o‘qitish;

oziq-ovqat mahsulotlarini sertifikatlash, standartlashtirish va ushbu faoliyatni tartibga solish sohasida tadqiqot olib borish va mutaxassislarni o‘qitish.

#### 7. Markaz o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida:

Institutning tarkibiy bo‘linmalari bilan doimiy ravishda o‘zaro hamkorlik qiladi;

ta’lim jarayonini zamonaviy xalqaro ta’lim standartlari va talablarini hisobga olgan holda tayyorlangan ta’lim dasturlari bo‘yicha, shuningdek, ilg‘or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalardan, o‘qitishning zamonaviy shakl va usullarini (amaliyot tahlili, guruh biznes-loyihalari, keys-stadi va boshqalar) qo‘llagan holda tashkil etadi;

Markaz xodimlari, respublika va xorijiy davlatlar olimlari va mutaxassislari ishtirokida muammoli maqsadli muhokamalar, davra suhbatlari, konferensiyalar, simpoziumlar tashkil etadi;

aqli qishloq xo‘jaligi, agronomiya, biotexnologiya, agroiqtisodiyot, chorvachilikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligi, agrologistika kabi dolzarb masalalar bo‘yicha fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib boradi;

o‘quv va ilmiy-uslubiy ishlarni olib borish, konsultatsiyalar o‘tkazish uchun shartnomalar asosida yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qiladi, shuningdek, yetakchi xorijiy kompaniyalar, ta’lim, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ilmiy faoliyatni tashkil etish sohasida shartnomalar tuzadi va hamkorlik qiladi, aqli qishloq xo‘jaligi, agronomiya, biotexnologiya, agroiqtisodiyot, chorvachilikni rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligi, agrologistika va boshqa sohalardagi ilmiy tadqiqotlarni tashkil etadi;

Agroklasterlarning boshqaruvchilarini va boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etadi;

o‘quvchilarning huquqiy, siyosiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning samarali tizimini yaratadi, o‘quvchilarning mehnat faoliyati va kasbiy o‘sishi ustidan doimiy monitoringni tashkil etadi;

### III. MARKAZ HUQUQLARI

#### 8. Markaz o‘ziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o‘z vakolatiga kiruvchi hamda qonun hujjatlariga va ushbu Nizomga zid bo‘limgan zarur qarorlarni qabul qilish va harakatlarni amalga oshirish, o‘z faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy masalalarini Institut bilan kelishgan holda hal qilish;

ilmiy-tadqiqot ishlariiga davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, banklar mutaxassislarni, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari xodimlarini, oliy ta’lim

muassasalarining, shu jumladan xorijiy davlatlarning olimlari va o‘qituvchilarini Institut tomonidan shartnoma asosida soha mutaxassislari sifatida jalg etish.

#### **IV. MARKAZNI BOSHQARISH**

9. Institut rektori buyrugi bilan Markazni boshqarish uchun mas’ul xodim biriktiriladi.

10. Mas’ul xodim:

Markaz faoliyatiga umumiylar rahbarlikni amalga oshiradi hamda Markazga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi, ushbu Nizomga riosa etilishi uchun shaxsan javobgar bo‘ladi, Markaz xodimlari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi, ularning vakolatlarini belgilaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq Markaz faoliyati bilan bog‘liq boshqa masalalarni ko‘rib chiqadi va Institut bilan kelishgan holda hal qiladi.

#### **V. MARKAZNING O‘QUV JARAYONI, O‘QUV-USLUBIY VA ILMIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.**

11. O‘quv jarayoni davlat ta’lim standartlari, zamonaviy xalqaro ta’lim standartlari va talablariga muvofiq ishlab chiqilgan o‘quv rejalarini va dasturlari asosida, shuningdek, o‘qitishning zamonaviy shakl va usullaridan, ilg‘or pedagogik, axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshiriladi.

12. Kadrlar tayyorlash mazmuni kadrlar tayyorlashning maqsad va vazifalari bilan belgilanadigan qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan o‘quv va kasbiy dasturlarga muvofiq amalga oshiriladi.

13. O‘quv rejalarini va dasturlari tegishli mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda Markaz tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

14. Institut va boshqa ilmiy-tadqiqot va oliy o‘quv yurtlari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlarning mutaxassislari Markazda o‘quv ishlariga yarim kunlik yoki soatlik asosda jalg qilinishi mumkin.

15. Xorijiy davlatlarning olim va mutaxassislari o‘quv va ilmiy ishlarga shartnoma asosida Institut mablag‘lari, jalg qilingan grantlar va xayriya mablag‘lari hisobidan haq to‘lash sharti bilan jalg qilinishi mumkin.

#### **VI. MARKAZNING MOLIYAVIY MANBALARI**

16. Markaz Institut tomonidan to‘liq moliyaviy ta’minlanadi va doimiy tarzda monitoring olib boriladi.

#### **VII. MARKAZNING XALQARO FAOLIYATI**

17. Institutning tasdiqlangan strategiyasi doirasida xorijiy ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, boshqaruvi kadrlarini qayta tayyorlash va ularning

malakasini oshirish sohasida, shuningdek, xalqaro moliyaviy, iqtisodiy, ta'lim, xayriya tashkilotlari bilan xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

18. Xalqaro hamkorlik, shu jumladan Markaz professor-o‘qituvchilari, xodimlari va talabalarining xorijda amaliyot o‘tashlari O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va Institut shartnomalari asosida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **VIII. MARKAZ FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH**

19. Markazni qayta tashkil etish (birlashish, qo‘shilish, bo’linish, ajralish, o‘zgartirish) yoki tugatish O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

